

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori – Hay’at raisi

A. Jumanazarov

2025-yil 27-yanvar

**O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi
Hay’ati yig‘ilishining 1-son bayoni**

2025-yil 27-yanvar

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi: A.Jumanazarov – O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori

Qatnashganlar: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas’ul xodimi J.Shakarov, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktorning birinchi o‘rinbosari A.Abdukayumov, direktor o‘rinbosarlari O.Tohirov, T.Mashanpin, boshqarma, bo‘lim boshliqlari hamda tizim tashkilotlari rahbarlari
(ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2025-yil 13-yanvardagi 07-15-1-son topshirig‘iga asosan “2024-yilda “Ijro.gov.uz” tizimida yo‘l qo‘yilgan nazorat topshiriqlari ijrosi samaradorligi yakunlari to‘g‘risida” iqtisodiy o‘qishni o‘tkazish to‘g‘risida.

2. “Ijro.gov.uz” elektron tizimida 2024-yil yakunlari sarhisobi va 2025-yil yanvar va fevral oylarda muddati belgilangan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijro holati to‘g‘risida.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2024-yil 10-oktyabr kuni Texnik jihatdan tartibga solish sohasida amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi rejalar to‘g‘risida o‘tkazilgan taqdimot bo‘yicha 45-sonli (03-RA 2-1-3443/16) yig‘ilish bayonda belgilangan topshiriqlar bajarilishi to‘g‘risida.

4. O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2024-yil 22-oktyabrdagi 36-son bayonida belgilab berilgan topshiriqlar bajarilishi holati to‘g‘risida.

5. Boshqa masalalar.

(Jumanazarov, Shakarov, Abdukayumov, Tohirov, Mashanpin, Gafurov, Umanov, Xandomov, Asqarov, Xodjikev, Orifboev, Dosoev, Inagamon, Kattasodjaev, Saiduripov, Qodirov, Niyozov, Zukirov, Xantayev, Jumanazarov)

Yig‘ilishda, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-yanvardagi 11-son qarori bilan, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining **Hay’ati a’zolari tarkibi tasdiqlanganligi haqida tanishtirib o‘tildi.**

“Ijro.gov.uz” elektron tizimida 2024-yil yakunlari sarhisobi, 2025-yil yanvar va fevral oylarida muddati belgilangan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijro holati birma-bir tanqidiy **muhokama qilindi** hamda mas’ul ijrochilar **hisoboti eshitildi.**

Agentlik tomonidan 2025-yil yanvar va fevral oylarida bajarilishi belgilangan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini muddatidan barvaqt va sifatli ta’minlash hamda kunlik nazorat qilish maqsadida “Kalendar grafik” va “Yo‘l harita”si **tasdiqlanib, ijroga qaratilganligi ta’kidlab o‘tildi.**

2024-yil yanvar-dekabr oylarida Agentlik tomonidan "Ijro.gov.uz" elektron tizimida jami – **320 ta** topshiriqlar yoki **2023-yilga nisbatan 176 ta (222 %)** ko'p topshiriq ijrosi ta'minlandi.

2025-yil davomida Agentlik tomonidan "Ijro.gov.uz" elektron tizimida bajarilishi lozim bo'lgan jami – **234 ta** (I chorakda **51 ta**, II chorakda **96 ta**, III chorakda **64 ta** va IV chorakda **23 ta**) topshiriq mavjud. Shundan,

2025-yil yanvar oyida bajarilishi belgilangan **35 ta** topshiriqdan (*Agentlik 26 tasida asosiy va 9 tasida hamijrochi hisoblanadi*) bugungi kun holatiga **30 tasining (86 %)** ijrosi ta'minlandi va **5 tasi** ijro etish jarayonida (*Agentlik hamijrochi hisoblanadi*) va **1 tasining** ijro muddati o'tgan.

2025-yil fevral oyida "Ijro.gov.uz" elektron tizimida bajarilishi belgilangan **25 ta** topshiriq mavjud bo'lib (*Agentlik 21 tasida asosiy va 4 tasida hamijrochi hisoblanadi*), bugungi kun holatiga **2 tasining (8 %)** ijrosi ta'minlandi va **23 tasi** ijro etish jarayonida (*muddati mavjud. Shuningdek, mazkur topshiriqlarning 3 tasida normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish masalasi mavjud*) va **4 tasida o'z muddatida bajarmaslik xavfi mavjudligi alohida to'xtalib o'tildi.**

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2024-yil 10-oktyabr kuni Texnik jihatdan tartibga solish sohasida amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi rejalar to'g'risida o'tkazilgan taqdimot bo'yicha **45-sonli (03-RA 2-1-3443/16)** yig'ilish bayonida belgilab berilgan topshiriqlar bajarilishi **muhokama qilindi** va mas'ul ijrochilar hisoboti eshitildi.

Bayonda jami **16 ta** topshiriqlar berilgan bo'lib (*Agentlik 14 tasida asosiy va 2 tasida hamijrochi hisoblanadi*), bugungi kun holatiga **13 tasi** ijro etish jarayonida bo'lsa, **3 tasining** ijrosi ta'minlangan.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2024-yil 22-oktyabrdagi 36-son bayonida **50 ta** topshiriq berilgan bo'lib, shundan **18 tasining** ijrosi ta'minlangan, **10 tasi** ma'lumot uchun qabul qilingan, **17 tasi** ijro etish jarayonida va **5 tasi** bajarilmagan.

Shu bilan birga, 2025-yilning 23-24-yanvar kunlari O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Ishchi guruhining Malayziyaga xizmat safari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar to'g'risidagi hisoboti ma'lumot sifatida ta'kidlab o'tildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash maqsadida Hay'at **qaror qiladi:**

1. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-yanvardagi 11-son qarori bilan, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Hay'ati a'zolari tarkibi tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Belgilansinki, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Hay'ati majlislarida, Agentlik va tizim tashkilotlarining faoliyatiga oid masalalar, belgilangan va kelgusidagi vazifalar, samaradorlik ko'rsatkichlar natijadorligi, moliyaviy-ho'jalik faoliyati yakunlari, ijro intizomi holati va boshqa masalalarning **choraklik, yarim yillik va yillik sarhisobi ko'rib chiqiladi;**

Agentlikning kengaytirilgan tarzda o'tkaziladigan yig'ilishlarida, mazkur masalalarning har oy yakuni bilan sarhisobi **ko'rib chiqiladi**.

2. Quyidagilar:

a) **2025-yil yanvar-fevral oyida** "Ijro.gov.uz" elektron tizimida bajarilishi belgilangan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ro'yxati **1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin**;

b) Agentlik tizimida xorijiy grant va ko'mak mablag'larni jalb qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 16-yanvardagi 03-PA 1-7252-son topshirig'i **ijro uchun qabul qilinsin**.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan grant va texnik ko'mak mablag'larini jalb qilishi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va biriktilgan ma'sullar to'g'risidagi ma'lumot **2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin**;

v) Agentlikning boshqarma, bo'lim hamda tizim tashkilotlari rahbarlarining hisobotlari **ma'lumot uchun qabul qilinsin**;

g) 2025-yil 23-24-yanvar kunlari Agentlik Ishchi guruhining Malayziyaga xizmat safari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar to'g'risidagi hisoboti **ma'lumot uchun qabul qilinsin**.

Bunda, **"O'zTest" DM** (Kattaxodjaev) JAKIM Malaysia Halal Analysis Centre (MyHAC) sinov laboratoriyasi tajribasini o'rgansin va o'rganilgan tajriba asosida **"O'zTest" DM**dagi mavjud xromatograflardan samarali foydalanish **choralarini ko'rsin**.

d) **joriy yilning 12-16-may kunlari** Islom hamkorlik tashkiloti xuzuridagi Ilmiy va texnologik hamkorlik bo'yicha doimiy qo'mitasi (COMSTECH) va Islom Mamlakatlarining Standartlar, Metrologiya Instituti (SMIIC) hamkorligida "COMSTECH-SMIIC Training Course on OIC/SMIIC Halal Products Standards and Testing" mavzusida tashkil etilayotgan treynning-seminar **ma'lumot uchun qabul qilinsin** va yuqori saviyada tashkil etish **choralari ko'rilsin**;

"O'zTest" DM (Kattaxodjaev) va **MBBTSAOB** (Dodoev)lar **2025-yil 1-mayga qadar** **"O'zTest" DM** xuzurida **"Xalol"** mahsulotlar sinov laboratoriyasini **tashkil etsin**.

Shuningdek, **Standartlar instituti** (Qodirov) va **TRvaSBDAOB** (Xodjikaev) **bir hafta muddatda** Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot (ISO), Davlatlararo standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish kengashi (MGS) va Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (IEC) texnik qo'mitalarida faoliyatni takomillashtirish bo'yicha axborot **tayyorlab**, rahbarga **kiritadi**.

3. Agentlikning bo'linma boshliqlari hamda tizim tashkilotlari rahbarlari:

2025-yil yanvar-fevral oylarida bayonning 1-ilovasiga muvofiq "Ijro.gov.uz" elektron tizimida bajarilishi belgilangan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarni tasdiqlangan **"Kalendar grafik"** va **"Yo'l xarita"**ga asosan muddatidan oldin va sifatli ijrosini **ta'minlasin**;

ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjat loyihalarini belgilangan tartibda hamda iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy yondashgan holda o'z vaqtida, puxta va sifatli tayyorlab, Hukumatga kiritish uchun **shaxsan mas'ul ekanliklari belgilab qo'yilsin**;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2024-yil 10-oktyabr kuni Texnik jihatdan tartibga solish sohasida amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi rejalar to'g'risida o'tkazilgan taqdimot bo'yicha 45-sonli (03-RA 2-1-3443/16) yig'ilish bayonda belgilangan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlasin hamda mazkur topshiriqlarda muddati o'tgan holatlar aniqlangan taqdirda qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy chora ko'rilishi bo'yicha **ogohlantirilsin**;

bir kun muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Texnik jihatdan tartibga solish sohasini xalqaro andozalarga moslashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi yakuniy qaror loyihasi (ID-4161) **qayta ko'rib chiqsin** hamda asoslangan takliflarni **SRTSAOvaEKB** (Hamdamov)ga **kiritsin**.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasining 2024-yil 2-dekabrda 45-son (03-RA 2-1-3443/16) topshiriqlari ijrosi bo'yicha:

a) Direktor o'rinbosari O.Tohirov:

bayonning 4-bandiga asosan "**O'zTest**" DM (Kattaxodjaev), **Standartlar instituti** (Qodirov) **2025-yil 1-fevralga qadar** "**O'zbekekspertiza**" AJning sinov laboratoriyalari akkreditatsiyasini belgilangan tartibda **bekor qilish** va uning natijasida foydalanishdan chiqarilgan sinov uskunolari va o'lchash vositalarini Jamiyat ustav kapitalida davlat ulushini tegishincha kamaytirish hisobiga "**O'zTest**" DM balansiga **o'tkazish ishlarini yakunlasin**;

bayonning 9-bandiga asosan **MBBTSAOB** (Dodoev), "**O'zTest**" DM (Kattaxodjaev), "**O'zMMI**" DM (Saidaripov), "**O'zbek Turk Test markazi**" MChJ QK (Xamzaev) **2025-yil 1-fevralga qadar** mahsulotlarni xalqaro standartlar talablari asosida sinash imkoniyatiga ega zamonaviy maxsus laboratoriyalar majmuasi "**Kampus**"ni qurish bo'yicha hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga **kiritsin**.

b) bayonning 11-bandiga asosan **SRTSAOvaEKB** (Hamdamov) Agentlikning **bo'linma boshliqlari** hamda **tizim tashkilotlari rahbarlari 2025-yil 1-fevralga qadar** yuqoridagi takliflarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga **kiritsin** va "**Ijro.gov.uz**" elektron tizimidan nazoratdan yechish **choralarini ko'rsin**.

5. Direktor o'rinbosari T.Mashanpin, MIB (Karimov), **IRRvaBB** (Inagamov) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi PQ-204-son qarorining 8.1-bandida belgilangan toshiriqlar ijrosini ta'minlash ishlari RAXTB boshlig'i F.Usmanov tomonidan muddati kechiktirilganligi **ko'rsatib o'tilsin** va oylik ustama to'lovi **15 foizga qisqartirilsin**.

RvaAXTB (Usmanov), **Standartlar instituti** (Qodirov), **MRvaO'BYaTB** (Alisherov), "**O'zMMI**" DM (Saidaripov) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3 iyundagi PQ-204-son qarorining 8.1-bandi ijrosini **qisqa muddatda ta'minlab**, "**Ijro.gov.uz**" elektron tizimidan nazoratdan yechish **choralarini ko'rsin**.

6. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2024-yil 22-oktyabrda 36-son bayoni ijrosi bo'yicha:

a) bayonning 2-ilovasiga muvofiq buta va ko'chatlarni ekish ishlari Nazorat inspeksiyasi, "**O'zMMI**" DM, Standartlar instituti va "**O'zbek-Turk test markazi**" MChJ QK tomonidan yetarli darajada tashkil etmaganligi **ko'rsatib o'tilsin** va yuqoridagi tashkilot rahbarlarining oylik ustama to'lovi **10 foizga qisqartirilsin**.

Bunda, "Yashil makon" umummilliy harakati doirasida ekiladigan daraxt va buta ko'chatlarini ekish muddati **2025-yil 21-mart kuniga qadar** etib belgilanadi;

b) bayonning 4.3-bandiga asosan hududlarni "ishsizlikdan holi hudud"ga aylantirish, ishsiz fuqarolarni kasbga o'rgatish va bandligini ta'minlashga ko'maklashish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish ishlari **"O'zMMI" DM** (Saidaripov) va **"O'zTest" DM** (Kattaxodjaev) tomonidan bajarilmaganligi **ko'rsatib o'tilsin** va kelgusida shu kabi kamchiliklarni takrorlangan taqdirda mehnat qonunchiligiga muvofiq intizomiy jazo chorasi qo'llanilishi to'g'risida **qat'iy ogohlantirilsin**;

"Kamabag'likdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish doirasida Agentlikka yuklatilgan Jizzax viloyati, G'allaorol tumanida joylashgan qishloq va mahallalar Agentlik va tizim tashkilotlar kesmida **quyidagicha taqsimlansin**:

Mulkush QFY – **"O'zTest" DM**;

O'zbekiston MFY – **"O'zMMI" DM**;

Uzunbuloq MFY – **Nazorat inspeksiyasi**;

Ko'kbuloq QFY – **"Akkreditatsiya markazi" DM**.

"O'zTest" DM (Kattaxodjaev), **"O'zMMI" DM** (Saidaripov), **Nazorat inspeksiyasi** (Abduraxmonov) va **"Akkreditatsiya markazi" DM** (A.Zakirov)lar Bunda, ushbu hududlardagi kambag'al oilalarni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha amaliy ishlarni tashkillashtirsin hamda ishsiz fuqarolarga ish topib oylik daromadini orttirish bo'yicha zarur chora tadbirlarni amalga oshirishda **ko'maklashsin** hamda ixtiyoriy va tashabbuslariga ko'ra boshqa hududlarda ham shu kabi amaliy ishlarni **tashkil etsin**;

SRTSAOvaEKB (A.Xamdamiyov) yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni **muvofiglashtiradi** va hisobotini **yuritadi** hamda natijasi bo'yicha rahbariyatga ma'lumot **kiritib boradi**.

v) bayonning 9-bandiga asosan xalqaro standartlar joriy etishga ehtiyoji mavjud bo'lgan hududlar kesimida korxonalar ro'yxatini shakllantirish hamda hokimliklar va tarmoqlar bilan birgalikda mahalliy korxonalarga xalqaro standartlarni joriy etish bo'yicha tarmoq jadvalini ishlab chiqib, tasdiqlash ishlari **Nazorat inspeksiyasi** (Abduraxmonov), **"O'zTest" DM** (Kattaxodjaev) va **"O'zMMI" DM** (Saidaripov) tomonidan bajarilmaganligi yuzasidan rahbar nomiga yozma tushuntirish **berishlari ta'minlansin**;

Nazorat inspeksiyasi (Abduraxmonov), **"O'zMMI" DM** (Saidaripov) va **"O'zTest" DM** (Kattaxodjaev), bilan birgalikda **uch kun muddatda** korxonalar ro'yxatini **shakllantirsin**, tarmoq jadvalini ishlab chiqib, **tasdiqlasin** va tasdiqlangan tarmoq jadvaliga asosan bajarilishini **ta'minlasin**;

g) bayonning 15.5-bandiga asosan Jizzax viloyati filiali sinov laboratoriyasi majmuasi binosida qurilish va rekonstruksiya ishlarini yakunlash hamda laboratoriya faoliyatini yo'lga qo'yish ishlari **"O'zTest" DM** (Toshmatov, Madumarov) tomonidan o'z vaqtida yakunlanmaganligi **ko'rsatib o'tilsin**;

"O'zTest" DM (Kattaxodjaev, Toshmatov, Madumarov) **2025-yil 1-martga qadar** **"O'zTest" DM**ning Jizzax viloyati filiali sinov laboratoriyasi majmuasi binosida qurilish va rekonstruksiya ishlarini **yakunlasin** hamda laboratoriya faoliyatini **yo'lga qo'ysin**.

7. **“O‘zTest” DM** (Kattaxodjaev, Toshmatov, Madumarov) **2025-yil 1-martga qadar** Xorazm viloyati filialida sertifikatlash organini tashkil etish ishlarini **yakunlasin.**

8. **Standartlar instituti** (Qodirov), **RvaAXTB** (Usmanov)lar **2025-yil 1-fevralga qadar** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-80-son Farmonining 1-ilovasi, 10-bandiga asosan 2024-yilda davlat xizmatlari markazlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali joriy etiladigan davlat xizmatlari ro‘yxati transport vositalariga “VIN” kodini berish ishlari belgilangan muddatda **yakuniga yetkazib**, “Ijro.gov.uz” elektron tizimidan nazoratdan yechish **choralarini ko‘rsin.**

Bunda, yuqoridagi topshiriq o‘z vaqtida bajarilmagan taqdirda **Standartlar instituti direktori D.Qodirovga** qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy jazo chorasini qo‘llanilishi haqida **ogohlantiriladi.**

9. Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi boshlig‘i o‘rinbosari lavozimiga munosib nomzodlar bo‘yicha taklifni Agentlikka o‘z vaqtida taqdim etmaganligi uchun Inspeksiya boshlig‘i o‘rinbosari S.Niyazov **qat‘iy ogohlantirilsin;**

Nazorat inspeksiyasi (Niyazov) **bir kun muddatda** Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi boshlig‘i o‘rinbosari lavozimiga munosib nomzodlar bo‘yicha takliflarni rahbariyatga **kiritsin.**

10. **SRTSAOvaEKB** (Hamdamov), **Nazorat inspeksiyasi** (Abduraxmonov), **“O‘zTest” DM** (Kattaxodjaev) va **“O‘zMMI” DM** (Saidaripov) **2025-yil 5-fevralga qadar** sifat sohasidagi yutuqlari uchun Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mukofoti tanlovida ishtirok etuvchi korxonalar sonini **10 taga yetkazish choralari ko‘rsin;**

XXvaIB (Orifboev) **2025-yil 6-fevralga qadar** tegishli hujjatlarni Mustaqil davlatlar hamdo‘stligining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo‘yicha davlatlararo Kengashi (MGS)ga yuborilishini **ta‘minlasin.**

11. **Standartlar instituti** (Qodirov) va **TRvaSBDAOB** (Xodjikaev) Davlatlararo standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish kengashi (MGS), Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) va Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (MEK)ning texnik qo‘mitalariga to‘laqonli a‘zolikni (P-member) **jadallashtirish.**

12. **“O‘zMMI” DM** (Saidaripov), **“O‘zTest” DM** (Kattaxodjaev) va **Standartlar instituti** (Qodirov)lar texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimida ilmiy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalar va ishlanmalarni rivojlantirish bo‘yicha Ilmiy dissertatsiya kengashni va doktoranturani tashkil etish ishlarini **jadallashtirsin.**

13. Mazkur bayonning ijrosi ustidan nazorat Agentlik direktorining birinchi o‘rinbosari **A.Abdukayumov**, direktor o‘rinbosarlari **O.Tohirov** va **T.Mashanpinlar** zimmasiga yuklansin.

2025-yil yanvar-fevral oyida "Ijro.gov.uz" elektron tizimida bajarilishi belgilangan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar
RO'YXATI

T/r	Topshiriqlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Ijroga mas'ullar
2025-yil yanvar oyida bajarilishi belgilangan (Agentlik hamdiprochi hisoblangan) topshiriqlar				
1	Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi PQ-204-son farmoni 8.1-band. Department: O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan birgalikda 2025 yil 1 yanvargacha iste'mol va texnik etil spiriti hamda alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida realizatsiya qilingan etil spiriti hamda ishlab chiqarilgan alkogol mahsulotlari miqdorining onlayn hisobini yuritadigan elektron hisoblagichlarga muvofiqlik sertifikatini berish hamda o'lchov uskunalarining hisobga olish axborot tizimiga integratsiya qilinishini ta'minlasin. Bunda hisobga olish axborot tizimi bilan integratsiya qilinmagan va axborot (ma'lumot) berilishi ta'minlanmagan taqdirda, iste'mol va texnik etil spiriti hamda alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish uchun berilgan litsenziya bekor qilinadi. Mas'ullar: O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi, Texnik jihatdan tartibga solish agentligi Muddat – 2025-yil 1-yanvar	1. Departament bilan hamkorlikda tegishli axborot tizimlarini integratsiya qilish bo'yicha texnologik yo'riqnomani ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Tasdiqlangan texnologik yo'riqnomalarga muvofiq axborot tizimlarini Elektron hukumating Idoralararo integratsiya qilinishini tashkil qilish va elektron axborot almashuvini yo'lga qo'yish. 3. Axborot tizimlarini doimiy texnik qo'llabquvvatlash va yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish choralari ko'rish.	2024-yil oktabr 2024-yil noyabr doimiy	F.Usmenov, A.Dodoyev, Q.Bekashev, L.Saidoripov
2	Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdaqi PF-229-son farmoni 12.1.1-band. Tadbirkorlik masalalari bilan ishlashning quyidagi tartibi joriy etilsin: a) Bosh vazir o'rinbosarlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi hamda davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tijorat banklari rahbarlari har oy grafik asosida: mahallalarga chiqqan holda hamda tematik yordashuv asosida tadbirkorlik sub'ektlari bilan uchrashuvlar tashkil qiladi, tadbirkorlik faoliyatida yuzaga kelayotgan masalalar	1. Har oy mahallalarga chiqqan holda hamda tematik yordashuv asosida tadbirkorlik sub'ektlari bilan uchrashuvlar tashkil etish maqsadida 2025-yil uchun mo'ljallangan reja-grafik ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Yuzaga kelayotgan masalalar yuzasidan "yo'l xaritalari"ni tasdiqlash.	2025-yil 10-yanvar Har oyning 20-sanasiga qadar	"O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DM (J.Katxodjoev) Sanoatni rivojlantirish texnik siyosatni amalga oshirish va eksportga ko'maklashish boshqarmasi (A.Xamdamov)

	yuzasidan "yo'l xaritalari"ni tasdiqlaydi va muammolar tekshirish bilan hal etilishini ta'minlaydi; <i>Mas'ulalar: Bosh vazir o'rinbosarlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi hamda davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tijorat banklari rahbarlari</i> <i>Muddat – 2025-yil 27-yanvar</i>	3. Grafik asosida uchrashuvlar tashkil etish va tadbirkorlik faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni tekshirish bilan hal etish. 4. Amalg oshirilgan ishlar yuzasidan umumlashtirilgan ma'lumotlarni Agentlikka taqdim etib borish. 5. Umumlashtirilgan tahliliy ma'lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Har oyning 20-sanasisiga qadar Har oyning 25-sanasisiga qadar	"O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DM (J.Kattaxodjaev) Sanoatni rivojlantirish texnik siyosatini amalga oshirish va eksportga ko'maklashish boshqarmasi (A.Xamdamov)
3	<i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda PF-229-son farmoni</i> 12.1.2-band. Tadbirkorlik masalalari bilan ishlashning quyidagi tartibi joriy etilsin: a) Bosh vazir o'rinbosarlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi hamda davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tijorat banklari rahbarlari har oy grafik asosida: yillik daromadi 1 trilion so'mdan oshgan, 5 mingdan ortiq ish o'rinlarini yaratgan hamda kamida 100 milliard so'm soliq to'layotgan yetakchi ("champion") tadbirkorlik sub'ektlari ro'yxatini shakllantirgan holda ular masalalari bilan manzilli ishlashni tashkil qiladi hamda boshqa tadbirkorlik sub'ektlarini ushbu toifaga olib chiqish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi; <i>Mas'ulalar: Bosh vazir o'rinbosarlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi hamda davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tijorat banklari rahbarlari</i> <i>Muddat – 2025-yil 27-yanvar</i>	1. Yillik daromadi 1 trilion so'mdan oshgan, 5 mingdan ortiq ish o'rinlarini yaratgan hamda kamida 100 milliard so'm soliq to'layotgan yetakchi ("champion") tadbirkorlik sub'ektlari ro'yxatini shakllantirish va ular bilan manzilli ishlash maqsadida 2025-yil uchun mo'ljallangan reja-grafik ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Yuzaga kelayotgan masalalar yuzasidan "yo'l xaritalari"ni tasdiqlash. 3. Grafik asosida uchrashuvlar tashkil etish va tadbirkorlik faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni tekshirish bilan hal etish. 4. Boshqa tadbirkorlik sub'ektlarini ushbu toifaga olib chiqish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. 5. Amalg oshirilgan ishlar yuzasidan umumlashtirilgan ma'lumotlarni Agentlikka taqdim etib borish. 6. Umumlashtirilgan tahliliy ma'lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil 10-yanvar Har oyning 20-sanasisiga qadar Har oyning 20-sanasisiga qadar Har oyning 25-sanasisiga qadar	"O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DM (J.Kattaxodjaev) Sanoatni rivojlantirish texnik siyosatini amalga oshirish va eksportga ko'maklashish boshqarmasi (A.Xamdamov) "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DM (J.Kattaxodjaev) Sanoatni rivojlantirish texnik siyosatini amalga oshirish va eksportga ko'maklashish boshqarmasi (A.Xamdamov)
4	<i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda PF-229-son farmoni</i> 12.1.3-band. Tadbirkorlik masalalari bilan ishlashning quyidagi tartibi joriy etilsin: a) Bosh vazir o'rinbosarlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi hamda davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tijorat banklari rahbarlari har oy grafik asosida:	1. Hal etilgan muammolar bo'yicha yig'ma ma'lumot hamda tizimli masalalar yechimi yuzasidan takliflar ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan takliflarni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va Jamoatchilik kengashiga taqdim etish.	Qadar Har oyning 25-sanasisiga qadar	"O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DM (J.Kattaxodjaev) Sanoatni rivojlantirish texnik siyosatini amalga oshirish va eksportga ko'maklashish boshqarmasi (A.Xamdamov)

	hal etilgan muammolar bo'yicha yig'ma ma'lumot banda tizimli masalalar yechimi yuzasidan takliflarni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va Jamoatchilik kengashiga taqdim etadi. <i>Mas'ullar: Bosh vazir o'rinbosarlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi hamda davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tijorat banklari rahbarlari</i> <i>Muddat – 2025-yil 27-yanvar</i>			Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (B.Inagamov), Yuridik byuro (A.Kamilov)
5	<i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-dekabrda 61-son bayoni</i> 22-band. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (Abduxakimov) Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Norqulov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda respublikaning barcha hududlarida yashillikni yanada kengaytirish ishlarini muvofiqlashtirish maqsadida mahalliy hokimliklar rahbarlarining maslahatchi shtat birliklarini joriy etish bo'yicha kelishilgan takliflarni ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish. <i>Mas'ullar: Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (Abduxakimov) Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Norqulov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirliklar va idoralar</i> <i>Muddat – 2025-yil 29-yanvar</i>	1 Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga taklif tayyorlash. 2. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga taklifni yuborish va bajarilgan ishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot kiritish.	2025-yil 24-yanvar	
2025-yil fevral oyida bajarilishi belgilagan (Agentlik asosiy ijrochi hisoblangan) topshiriqlar				
1	<i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-80-son farmoni</i> 1-ilova 10-band. 2024-yilda davlat xizmatlari markazlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali joriy etiladigan davlat xizmatlari ro'yxati Amalg o'stirish shakli: Transport vositalariga "VIN" kodini berish <i>Mas'ullar: Texnik jihatdan tartibga solish agentligi</i> <i>Muddat – 2025-yil 1-fevral</i>	1. Transport vositalariga "VIN" kodini berish xizmatining ma'muriy reglamentini bo'yicha ishlab chiqilgan qaror loyihasini Prezident Administrasiyasi va Vazirlar Mahkamasiga mas'ul xodimlari bilan birgalikda ishlagan xolda taklif va e'tirozlarini bartaraf etish. 2. Qaror loyihasini tasdiqlatish choralarini ko'rish. 3. Transport vositalariga "VIN" kodini berishni yo'lga qo'yish.	2025-yil 24-yanvar 2025-yil 28-yanvar 2025-yil 30-yanvar	Standartlar instituti (D.Qodirov), RAvaXTB (F.Usmenov)
2	<i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-dekabrda 45-son bayoni (45-2024)</i> 4-band. Texnik tartibga solish agentligi (Jumanazarov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (Ortiqov) 2025-yil	1. "O'zbekeksperitsa" AJ tomonidan taqdim etilgan sinov uskunalari va o'lcash vositalarini "O'zTest"DMga o'tkazish yuzasidan Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga xat kiritish.	2025-yil 24-yanvar	"O'zTest" DM (J.Kattaxodjaev), O'zbekiston standartlar instituti (D.Qodirov)

	1-fevralga qadar "O'zbekeksperitza" AJning sinov laboratoriyalari akkreditatsiyasini belgilangan tartibda bekor qilish va uning natijasida foydalanishdan chiqarilgan sinov uskunalarini va o'lchash vositalarini Jamiyat ustav kapitalida davlat ulushini tegishincha kamaytirish hisobiga O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markaziga o'tkazish choralari ko'rsin. <i>Mas'ullar: Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi</i> <i>Muddat – 2025-yil 1-fevral</i>	2. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hulosasiga "O'zTest"DMga "O'zbekeksperitza" AJning sinov laboratoriyalarini xatlovdan (inventarizatsiya) o'tkazish choralari ko'rish. 3. Xatlov asosida ishchi xolatda bo'lgan sinov uskunalarini va o'lchash vositalarini ro'yxatini shakllantirib, "O'zTest"DMga o'tkazish bo'yicha muassisni buyrug'ini chiqarish. 4. Amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot kiritish.	2025-yil 27-yanvar 2025-yil 29-yanvar 2025-yil 31-yanvar	"O'zTest" DM (J.Kattaxodjaev) O'zTTM (M.Xamzaev)
